

## MAQSAD MA'NOSINI IFODALOVCHI DASTLABKI VOSITALAR

**Sirojiddin Mamaraximov**

Guliston davlat universiteti magistranti

### ANNOTATSIYA

Turkiyshunoslikda bugungi kunga qadar uzil-kesil hal etilmagan bir qancha muammolar mavjud. Modomiki, turkiy tillar davri taraqqiyoti qadimgi va hozirgi turkiy tillarning tipologik birligi hamda leksik umumiyligining asosi sanalar ekan, bu mushtaraklik belgilari to'la asoslanishi lozim. Turlicha tuzilishda til belgilarining real taqsimlanishi, turkiy qabila va elatlarning bir xil birikmaganligi yoki ajralganligining natijasi, ularning qardosh yoki qardosh bo'lmagan etnik guruhlar bilan til belgilariga ko'ra turlicha integrallashuvi oqibati deb qarash mumkin bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** Maqsad, kategoriya, so'z turkumlar, kategoriya.

### KIRISH

Turkiy tillarni qiyosiy - tarixiy aspektida o'rganishda ularning areal xususiyatlarini ham hisobga olish zarur. Oltoy, Mo'g'ul, Koreys kabi tillarning qarindoshligi masalasi munozaralidir. Ayrim olimlar bu tillarning genetik jihatdan qarindosh emas, balki tipologik o'xshash degan fikrni bildiradilar. Qiyosiy - tarixiy metod orqali bu hodisalarga aniqliklar kiritiladi.

### ADABIYATLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Oltoy tillarining genetik qarindoshligi haqidagi gipoteza yoki oltoy gipotezasi o'tgan asrda R.Rask, V.Shott va M.A.Kastrenlar tomonidan ilgari surilgan va avval Ural - Oltoy, so'ng Oltoy variantlarida keng ko'lamda tarqaldi. Ural - Oltoy variantining Oltoy deb o'zgartirilishi munosabati bilan ural tillari alohida oila tarzida ajratildi. Oltoy tillari deb turkiy, mo'g'ul, tungus - manjur va ayrim mulohazalar bilan koreys tillari ajratildi. Aytilgan guruhlarini birlashtiruvchi belgilar sifatida V.K.Memyus unlilar uyg'unligi, so'z boshi va so'z oxirida undosh tovushlar guruhlanib kelishi mavjud emasligi, cho'ziq va ikkilangan undoshlarning yo'qligi va ochiq bo'g'inlarning ko'p ishlatilishini ko'rsatadi. Ye.D.Polivanov morfologiyaning suffiksial tipda ekanligi, urg'uning doimiy o'zgarmas (avvalgi bo'g'inda) ekanligi, leksik morfemalar tipik miqdoriy tarkibidagi tahminiy o'xshashliklar (bir va ikki bo'g'inli so'zlar), singarmonizm, fonetikadagi o'xshashliklarni asos hilib ko'rsatadi. "Dunyo tillari" kitobining (yangi nashri) kirish qismida muallif J. Deni turkiy, mo'g'ul va tungus - manjur

tillarini tasvirlashda bu uch guruhning umumiy belgilari sifatida quyidagilarni ko'rsatadi: - fonetika sohasida unlilar uyg'unligi, so'z boshida sonorlarni ishlatmaslik (ayniqsa turk tilida), yarim unlilarning ahamiyatsizligi, so'z oxiridagi n tovushining beqarorligi, so'z boshi va so'z oxirida undoshlarning qatorlashib kelmasligi - morfologiyada esa grammatik rodning yo'qligi, faqat ikki grammatik sonning mavjudli, o'zakni o'zini ishlatish imkoniyatining mavjudligi, morfologiyaning agglyutinativ - suffiksial xarakterda ekanligi (prefikslarning yo'qligi), predloglarning yo'qligi (ular o'rnida ko'makchilar ishlatiladi) va hokazo - sintaksis sohasidagi so'zlar tartibi (ikkinchi darajali bo'laklarning bosh bo'laklardan oldin kelishi), bog'lovchilarning deyarli yo'qligi va nisbat olmoshlari (otnostelniye mestoimeniye)ning deyarli mavjud emasligi. Har uchala guruh uchun umumiy belgi sifatida o'rin-joy kelishigidagi " da ", lokativ affiks " ki " larni ko'rsatish mumkin. Kishilik olmoshlarida ham o'xshashlik mavjud. Yuz yildan ortiqroq vaqt ichida Oltoy gipotezasi o'z kuchini saqlab turdi. Komparativistik oltoyshunoslikning kulminatsion nuqtasi sifatida ikki qiyosiy grammatikaniig yaratilganligi katta voqeadir (Ramsted va Poppe asarlari). Ikki muallif o'z qarashlari va ulargacha bo'lgan materialni to'plab, umuman bu borada qilingan ishlar xulosasini berdilar. Ammo bu qiyosiy grammatikalarning paydo bo'lishi bilan tadqiqotchilarning ko'pchiligi tomonidan Oltoy gipotezasi ilmiy qimmatga ega emas, degan fikr aytili, chunki bu asarlar o'xshashliklarni topish va bobo shakllarni qayta tiklashdagi uslublar umuman to'g'ri emasligini oydinlashtirdi. So'nggi yillarda komparativistik oltoyshunoslik bilan bir qatorda boshqa yo'nalish ham rivojlanayapti, u oltoy tillarining tarixiy aloqasini nazarda tutib, faqat o'xshashliklarni emas, farqlarni ham hisobga oladi. Oltoy - ural tillarida ko'zga tashlanadigan asosiy tipologik belgilar quyidagichadir: 1.Fonetik sathda: singlarmonizm (unlilar uyg'unligi)ning mavjudligi, undosh tovushlarning assimilyatsiyaga uchrashi qonuniyatining amal qilishga, so'z o'zagida jarangli undoshning qat'iyiligi, so'z boshida bitta undosh tovushning kelishi, semantik differensiyaga uchragan so'zlarda singlarmonik parallelizm uchrashi mumkinligi, so'z birikmasidagi kesim so'zga bosh urg'uning tushishi kabilar. 2. Morfologik sathda: so'z va so'z o'zgarishida qo'shimchalar agglyutinatsiyaga yo'l qo'yilishining ustunligi va ba'zan o'zak morfemaning fuziyaga yo'l qo'yishi, old qo'shimchalar vazifasida ko'makchilarning qo'llanishi, artikllarning uchramasligi, grammatik rod kategoriyasining mavjud emasligi, egalik kategoriyasining borligi, chiqish kelishigidagi konstruksiyasida qiyoslash ma'nosining ifodalanishi, birlik va ko'plik sonlarda so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarining nisbatan ko'pligi, bosh kelishik vazifasining ko'pligi kabilar 3. Sintaktik sathda: son bilan ifodalangan aniqllovchilarda sonda moslashuvning



uchramasligi, so'roq ma'nosini ifodalashda yuklamalarning qatnashishi, ergash gaplar o'rnida sifatdosh va ravishdosh oborotlarining keng ishlatilishi, tushum kelishigida ifodalangan obyektning mantiqiy urg'uga tortilishi, gap bo'laklari tartibining nisbatan qat'iyligi, aniqlovchi vazifasida keluvchi sifat, son va olmoshlarning aniqlashishga muvofiq holda o'zgarmasligi va boshqalar 4. Leksik sathda: Turkiy tillar lug'at tarkibida umumiy qatlamning mavjudligi, bir bo'g'inli so'zlarda mushtaraklik yaqqol namoyon bo'lishi, siyosiy - ijtimoiy muhit ta'sirida hukmron til leksikasining o'zlashganligi va b. Oltoy va turkiy tillarining ayrim guruhlaridagi leksik farqlar bu tilning keyingi taraqqiyoti natijasi hisoblanadi. Oltoy tillari lug'aviy boyligida turk, mo'g'ul va tungus - manjur tillari uchun umumiy so'zlar uchraydi. Turkiy tillarning sharqiy tarmog'ida xitoy, sanskrit, fors-arab leksikasi va fin tili elementlarining uchrashi turkiy tillar lingvistik xaritasi kengligining nishonasidir. Turkiy tillar taraqqiyotining mo'g'ul davrida Sibir va Markaziy Osiyo tillarida mo'g'ulcha so'zlarning o'zlashtirilganligi oltoy tillari orasidagi tillarning lug'at tarkibini boyitishga xizmat qilgan, XV asrgacha bo'lgan mushtarak turkiy adabiy - badiiy matnlar tilini chuqur o'rganish natijasida turkiy tillarning umumtipologik xususiyatlarini aniq belgilash, keyingi til taraqqiyotidagi o'zgarishlar bilan solishtirish, hozirgi turkiy tillarning turli sathlarida ro'y bergan farqli belgilarning sabablarini aniqlash mumkin bo'ladi. Hozirgi turkiy tillarni qiyosiy aspektda o'rganish, ularning turli til sathlaridagi mosligi darajasini belgilash, zamonaviy yondoshuvlar va tadqiq metodlari asosidagi nazariy ma'lumotlarni boyitish, qarindosh tillarning turli sohalardagi qiyosiy lug'atlarini yaratish taqozo etmoqdaki, bularning barchasi turkiyshunoslik oldida turgan masalalarni oydinlashtirishga xizmat qiladi.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Zamonaviy o'zbek tilshunosligining ildizi, albatta, qadimgi turkiy va eski o'zbek adabiy tiliga borib taqaladi. Shu boisdan bu davrni o'rganmay, bugungi kundagi maqsad ma'nosini ifodalovchi vositalarni o'rganib bo'lmaydi. Misol uchun o'sha davrlarda maqsad ergash gapli konstruksiya tilda foydalanilgan bo'lib, bulardan oqilona foydalangan desak xato bo'lmaydi. Maqsad ergash gap konstruksiyalarni tashkil etgan qismlarning biri ikkinchisidan anglashilgan mazmun nima maqsadda ro'y berishini ifodalaydi. Maqsad ergash gap bosh gapdan oldin keladi. Masalan: *ani anyitayin teb, sülədim* (Ung). *Türk bodun yitməzün təyin yoluq erməzün təyin üzə təhri tər ərmish...* (Ung).

Bundan tashqari, bog'lovchilar masalasiga alohida to'xtalib o'tilgan. Olim A.Matg'oziyev, o'z navbatida, bog'lovchilar



ishtirok qilgan gapning sintaktik-semantik (mazmuniy) tuzilishiga ko'ra quyidagi turlarga ajratadi va ilmiy tahlil qilib o'tadi:

1. Aniqlov bog'lovchilari: *-kim, -ki, ya'ni*.
2. Shart bog'lovchilari: *qaltī, qalī, abam, abang, biruk, abam biruk, agar, gar, ar, magar, varna, vagarna, modomiki, mabodo, basharti, bordi-yu*.
3. To'siqsizlik bog'lovchilari: *agarchi, garchi, archi, agarchand, garchand, harchand, bovujudkim, bovujudi ulkim*.
4. Sabab bog'lovchilari: *aning, anī uchun, antag'ining uchun, aning uchunkim, chu, chun, chunki, chunkim, zero, zeroki, charoki, shu sababli, shu tufayli, shu boisdan, ushbu jihatdin, ushbu vajhdin, negaki, nedinki, nechunkim, nega desa, nima uchun desa*.
5. Maqsad bog'lovchilari: *teb, teyin, deb, to, toki, tokim, toinki*.
6. Payt bog'lovchilari: *chun, chu, to, toki, tokim, toinki, hamonoki, vaqtekim*.
7. Chog'ishtiruv-qiyoslash bog'lovchilari: *chun, chu, o'ylakim, bo'ylakim, go'yo, go'yokim, chunin kabi*.

Ushbu tahlil qismlarda turli ma'no nozikliklarni ifodalash bilan birga maqsad ma'nosining ifodalanishi o'zgacha qo'llanadi. So'zlovchining fikri aniq, ravon, chiroyli talaffuz qilinishi va tushunarli bo'lishida maqsad manosini bildiruvchi fikrlar birlamchi hisoblanadi.

Shuningdek, A. Matg'oziyev tarixiy ergashtiruvchi bog'lovchilarni gapda joylashuvini ham ko'rib chiqadi. Uning tasnifiga ko'ra ergashtiruvchi bog'lovchilar ergash gapli qo'shma gap komponentlarining turli o'rinlarida: bosh yoki ergash gap tarkibida kelishiga ko'ra farqlanadi va ularni quyidagi turlarga ajratadi:

1. Faqat bosh gapning tarkibida qo'llanuvchi ergashtiruvchi bog'lovchilar: *anī, anī(ng) uchun, aning uchun (shuning uchun), aning uchun kim, shul sabadin, shu jihatdin, shu boisdin, shul vajhdin*.
2. Faqat ergash gaplarning tarkibida qo'llanuvchi ergashtiruvchi bog'lovchilar: *qalī, abang, agar, biruk, magar, gar, agarchi, garchi, agarchand, garchand, harchand, bovuji ulkim, mabodo, modomiki, basharti, varna, vagarna, deb, ya'ni, chunki, zeroki, toki, negaki, nedinki, nimaga desangiz*.
3. Bosh va ergash gapning tarkibida qo'llana oladigan ergashtiruvchi bog'lovchilar: *ki, kim, chun, chu, go'yo, go'yoki, o'ylakim, bo'ylakim*.

Ko'rinadiki, o'zbek tilining tarixiy taraqqiyoti davomida *qalī, abang, biruk (biraq), magar, bovujudi ulkim, zeroki, charoki, o'ylakim, bo'ylakim* kabi bog'lovchilar iste'moldan chiqib ketgan.

Bu davr ergashtiruvchi bog'lovchilarini o'zining sintaktik vazifasi va ma'nolariga ko'ra quyidagi turlarga bo'ladi

1. Aniqlov-izohlov bog'lovchilari: *-kim, -ki, ya'ni*.
2. Shart bog'lovchilari: *agar, gar, ar, vagarna, garna, varna, arna, mabodo, basharti*.
3. To'siqsizlik bog'lovchilari: *agarchi, garchi, archi, agarchand, harchand, bavujudi ulkim*.
4. Sabab bog'lovchilari: *chunki, chun, chu, zeroki, charoki, aning uchunki, nedinki, negaki, shuning uchun*.
5. Maqsad bog'lovchilari: *to, toki, deb*.
6. Payt bog'lovchilari: *chunki, chun, chu, to, toki, vaqtiki, hamonoki*.
7. O'xshatish-qiyoslash bog'lovchilari: *chun, chu, oylakim, boylakim, go'yo, go'yoki* kabi. Eski o'zbek tilda ayrim bog'lovchilar birdan ortiq ma'no va funksiyada qo'llangan. Masalan, *to, toki* payt va maqsad ma'nosida; *chun* va *chu* payt, sabab va o'xshatish-qiyoslash ma'nolarida qo'llangan.

Umuman olganda har qanday fikr ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi, buning uchun aniqlik, shart, to'siqsizlik, sabab, maqsad, payt va o'xshatish-qiyoslash bog'lovchilari qo'llaniladi. Lekin shular qatorida maqsad bog'lovchisining qo'llanilishi maqsadning me'yor darajasidan ortiqligini ifodalab keladi.

Qadimgi turkiy va eski o'zbek adabiy tiliga oid yozma manbalarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bular ichida yozma manbalar tilida ko'makchilarning qo'llanilishi va ma'no turlariga ham duch kelamiz. Bunga quyidagicha qarashimiz mumkin

1. Sof ko'makchilar.
  2. Vazifadosh ko'makchilar
- T. Rustamov ko'makchilarning tarixiy taraqqiyoti masalalarini o'rganishda shartli ravishda uch katta davrga bo'lib olib boradi:
1. XII-XIV asr yozma yodgorliklari.
  2. XV-XVI asr yozma yodgorliklari.
  3. XVII-XX asrning boshlari yozma yodgorliklari.

Mustaqil so'zlarning ko'makchi so'zlar turkumiga o'tishi undagi leksik va grammatik xususiyatlarning o'zgarishiga olib keladi. Ko'makchilar grammatik kategoriya bo'lgani uchun ham tilda ko'makchilarning paydo bo'lishi grammatikaning bir elementi hisoblanadi.

Ko'makchilarning mustaqil ma'noli so'zlardan farqi ko'makchilarda mustaqil leksik ma'no yo'k ekanligidagina emas, balki ko'makchilardagi leksik ma'no qandaydir o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, ular mustaqil ma'noli so'zlarga birikkandagina paydo bo'lishidadir.

Ma'lumki, vaqtning o'tishi bilan yangi ko'makchilar paydo bo'lib, ba'zi ko'makchilar iste'moldan chiqib ketadi. O'zbek tili tarixida ham ushbu holatni ko'rishimiz mumkin.

Eski o'zbek adabiy tilida qo'llangan ko'makchilar ko'p o'rinda hozirgi o'zbek adabiy tilidagi ko'makchilarga o'xshaydi. Ularning qo'llanishi va ma'nolari farq sezilmaydi. Biroq ularning fonetik va ayrim ko'makchilardagi farq mavjud.

Eski o'zbek tiliga oid manbalar tilida qo'llangan ko'makchilarni ham, dastavval, ikki yirik guruhga ajratish mumkin:

- 1) sof ko'makchilar;
- 2) funksional ko'makchilar.

Ushbu manbalarda sof ko'makchilarga alohida urg'u berib o'tilgan. Masalan, **birla//bila//birlan//bilan ko'makchisi** quyidagi grammatik ma'nolarni ifodalaydi:

- **birgalik ma'nosini bildiradi:** *Bir neche xalq birlakamigə kirdi* ("Qissasi Rabg'uziy", 246). *Sanih birla dost boldum* (Nahjul Farodis, 223).

- **vosita ma'nosini bildiradi:** *Bichqi birla bichdi* (Tafsir, 129). *Tash birlaurdi* (Nahjul Farodis, 12).

- **payt bildiruvchi so'zlar bilan kelganda, payt ma'nosi ifodalanadi:** *Ertə birlə kəldiler* (Tafsir). *Ibrahim taḥ birlə qopti* ("Qissasi Rabg'uziy").

- **holat ma'nosini bildiradi:** *Munlar jumla g'azab birlə chiqtilar* (Nahjul Farodis). *Uzun rag'bat bilə ul tashqa surter* (Xusrav va Shirin).

- **sabab ma'nosini bildiradi:** *Bu maqamg'a ne bilə tegdiḥ* ("Qissasi Rabg'uziy"). *Bir kimerseni xata birla o'lturdi* (Nahjul Farodis).

- **maqsad ma'nosini ifodalaydi:** *Men ul shart birlə musulman bolurmen kim, meni alsah* (QR, 286). *Uydan uch shirt bilan chiqtilar kim, ne yerde faqir taifasin tapsalar, tukkeyler* (SS, 76a).

- **birla//bila//birlan//bilan ko'makchisi ayrim manbalarda biriktiruvchi bog'lovchi vazifasida ham qo'llangan:** *Ne bar yoq-luq bilə barliq arasi* (Xusrav va Shirin). *Ma'shuqa qatinda chun tupraq bilə altun bir* (Sayfi Saroiy).

Qadimgi turkiy va eski o'zbek adabiy tiliga oid yozma manbalarga **uchun ko'makchisi bir qancha ma'nolarni ifodalab kelishi kuzatiladi:**

- **sabab ma'nosini bildiradi:** *yazuqi uchun qiynama-*(Tafsir). *Iig'lamaq ne uchun tedi* ("Qissasi Rabg'uziy", 676). *Halaklik bolsun seḥe bu so'z uchun* (Nahjul Farodis).

- **maqsad ma'nosini bildiradi:** *Oz yalg'anchiliqin bilgur-mak u chu n o'qidi* (Tafsir). *Biz kelduk bularni halak qilib, seni qutqarmaq uchun* ("Qissasi Rabg'uziy").

- **atalganlikni bildiradi:** *Xalqlar uchun bar anda mevalar* (Tafsir). *Fatima uchun Abubakr bazardan xarid qildi taqi bir sinek aldilar taqi ikki ko'ze aldilar* (Nahjul Farodis).

- **evaz, tenglik kabi ma'nolarni bildiradi:** *Ikki diram uchun qolun keskeyler* (Sayfi Saroiy). *Kishi uchun kishi hech o'lmishi yoq* (Xusrav va Shirin).

- **uchun ko'makchisi ayrim manbalarda qisqargan -chun shaklida ham qo'llangan:** *Inshaalla-chun bu ayat keldi* (Tafsir). *Bu kun ul mi n bir ati n xurmati-ch u n, habibi n Mustafani n izza-ti-ch u n ani lutfi n bilak dilshad qilg'il* (SS, 816).

- **kebi//kibi ko'makchisi** bosh va qaratqich kelishikdagi so'zni boshqaradi *kabin//kibin* shakllari ham uchraydi: *Xatun kishi kebin* ("Qissasi Rabg'uziy"). *Kichiklik halatinda anasina ul munu n kib in qilsa, baz qiyas etkim, ulg'aysa, o'zgege-ne qilg'ay* (Sayfi Saroiy).

Bulardan tashqari qadimgi turkiy va eski o'zbek adabiy tiliga oid yozma manbalarida bu ko'makchi chog'ishtirish, qiyoslash, o'xshatish ottenkalari ham ifodalab kelganligiga guvoh bo'lamiz:

- **Yza//uzra ko'makchisi** asosan bosh kelishikdagi so'z bilan birikadi. Ish-harakat predmetning ustki qismiga yo'naltirilgani yoki predmetning ustki qismida ijro etilgani ko'rsatiladi: *Bashini koli uza urdi* (TF), *Ul taxt uzra olturdi* (QR).

- **Ichrə ko'makchisi.** Bu ko'makchi bosh kelishikdagi so'z bilan qo'llanadi: Kishilik olmoshining III shaxs birligi qaratqich kelishigida keladi: *keme ichrə, zindan ichrə, g'ar ichrə* kabi. Bu ko'makchi bosh kelishikdagi so'z bilan qo'llanadi:

Til tarixiga chuqurroq kirib boradigan bo'lsak, ko'makchilardan tashqari kishilik olmoshining III shaxs birligi qaratqich kelishigida keladigan shaklda ham bir qancha ma'no nozikliklari qatori maqsad ma'nosining ifodalanishi kuzatiladi: *ani n ichrə*.

Asarning tahliliy jihatini olib qaraydigan bo'lsak, *ichrə* ko'makchisi quyidagi ma'nolarni ifodalashini kuzatamiz:

- ish-harakatning biror narsa-predmet ichida yuz berishini ko'rsatadi, ya'ni «ichida», «o'rtasida» kabi ma'nolarni ifodalaydi: *Qamug' ani n ichrə mangu qalg'aylar* ("Tafsir"). *Iblisni keme ichrə ko'rdi* ("Qissasi Rabg'uziy"). *Tag'i ot ichrə Azar og'lin asrar* ("Muhabbatnoma"). *Bu parda ichrə kelturdum xush avaz* ("Xusrav va Shirin"). *Agar Nil ichrə erseq ach yuk, ey yar* ("Xusrav va Shirin").

- holat ma'nosini ifodalaydi: *Ko'rub Xisrav taajjub ichrə kaldi* ("Xusrav va Shirin"). *Bu qazg'u ichrə qalmadi qarari* ("Xusrav va Shirin").

-obyektni ko'rsatadi: *Hikayat ko'p bu surat ichre, aqla* ("Xusrav va Shirin"). *Aya ko'rk ichrə alam padishahi* (MN). *Kim ush Shirin erur so'z ichr e paki* ("Xusrav va Shirin").

- payt bildiruvchi soʻzlar bilan qoʻllanganda payt ifodalaydi: *Leti yuz eli toʻrt ichrā tugendi* ("Muhabbatnoma"). *Bu besh-on kun ichrā rahm qil meʼre* ("Xusrav va Shirin").

- yodgorliklar tilida *ichrā* koʻmakchisi ravish maʼnosida ham qoʻllangan: *Iusuf Zulayha birlā ichra qaldilar* ("Nahjul Farodis"). *Malik tabuti kim gumbazge yettiḡ kigurdi ichrā, elge uzr ayitti* ("Xusrav va Shirin").

Ushbu manbalarda *taba*, *tabaru* koʻmakchilari maʼno qirralarini ham kuzatishimiz mumkin:

- ish-harakatning yoʻnalishini koʻrsatadi: *Ot tabaru eltti* ("Tafsir"). *Falastin taba barur boldi* (QR). *Uchmah taba nazar qilgʻil* ("Nahjul Farodis"). *Ravan Mashhad tabaru tebrediler* ("Xusrav va Shirin").

- obyektini koʻrsatadi: *Bir xurma yagʻachi taba aydi* ("Tafsir"). *Elchiler Sulaymangʻa taba aydilar* ("Qissasi Rabgʻuziy").

- holatni ifodalaydi: *Baliqlar yerge kvk yash yuzi taba tusherin qamugʻ koʻrdiler* ("Qissasi Rabgʻuziy").

- vosita maʼnosini ifodalaydi: *Qurtqani bazar bashida dargʻa taban asib oʻlturdiler* ("Qissasi Rabgʻuziy").

XI asr yozma manbalarida *taba*, *tabaru* koʻmakchi turli xil maʼno ifodalab kelganligiga guvoh boʻlamiz. Bundan tashqari, **tegru**, **tegi koʻmakchilari** ham bir qancha maʼno nozikliklariga ega:

- payt bildiruvchi otlar bilan birikib, payt maʼnosini ifodalaydi: *Ul vaqtgʻa tegi hech vluk suv üzə yoqaru kelməs erdi* ("Tafsir"). *Qirq kunge tega koʻrmez bolur erdiler* ("Qissasi Rabgʻuziy");

-oʻrin maʼnosini ifodalaydi: *Alti ayat tugel bolgʻinchagʻa tegi bu sura yetmish besh ayat turur* ("Tafsir"). *Belinge tegi yutti* ("Qissasi Rabgʻuziy"). *Mashruqdin magʻribqa tegi xush arigʻ bolgʻay* ("Nahjul Farodis"). *Qachib Chin-u Kitaygʻa tegru ketkey* (Sayfi Saroiy).

Bu asarlarda **yaʼligʻ**, **bikin** koʻmakchilari asosan bosh kelishikdagi soʻzga birikishi va oʻxshatish maʼnosini ifodalashi keltirilgan: *Ushbu yaʼligʻ mehnat ichrā kun kechurdi* ("Qissasi Rabgʻuziy"). *Quyash yaʼligʻ jamalin alam aray* ("Muhabbatnoma"). *Baqib anih bolur yaʼligʻ teninge* ("Xusrav va Shirin"). *Ioq erse ul atasi yaʼligʻ olsun* ("Xusrav va Shirin"). *Iaratti ay bikin zeba seni haq* ("Muhabbatnoma"). *Alinda yavash qoy bikin mushfiq yar* (Sayfi Saroiy). *Biligli er attar dokani bikin durur* (Sayfi Saroiy). *Koʻkke bashin seniḡ biki tekken* (Sayfi Saroiy). *Anih bikin shukr meʼre vajib durur* (Sayfi Saroiy).

**Sari koʻmakchisi** ish-harakatning yoʻnalishini koʻrsatadi: *Ey Ibrahim, agar yigʻlamasa-sen, seniḡ saru qilmagʻay-men...*



("Tafsir" ). *Ey Iulduz, taq sarig'a senler baruq..., tun sar ig'a sen-ler bariq* ("O'g'uznoma"). *Ko'p el ko'qilin seniq sari evurgey* ("Xusrav va Shirin"

*Sayu ko'makchisi* bosh kelishikdagi shakliga birikib, ish-harakatning davomligini ifodalaydi: *Kun sayu uchmahtin taam kelur erdi* ("Qissasi Rabg'uziy"). *Yil sayu yilqi qaradin unda bersun* (QR).

*Qadar ko'makchisi. ul, ne* kabi olmoshlar bilan birikib, miqdor ma'nosini ifodalaydi: *Bir kunde ne qadar taam yemek kerek* (Sayfi Saroiy). *Alimlarg'a ul qadar ne'mat bergil kim,...* (Sayfi Saroiy).

Umuman olganda, yuqorida tahlil etilgan ko'makchilar matn tarkibidagi so'zlar bilan birga turli xil ma'no nozikliklariga yuzaga chiqaradi. Shular qatorida maqsad ma'nosining ifodalanishi alohida o'ringa egaligi bilan ajralib turadi.

Ushbu asarlarda maqsad ma'nosining ifodalanishi nafaqat ko'makchilar, balki boshqa vositalar bilan ham ifodalanadi, jumladan, qadimgi turkiy va eski o'zbek adabiy tiliga oid yozma manbalarida bugungi kun o'zbek tilshunosligidagi kabi gap bo'lagi bo'lmish holning ham maqsad ma'nosini ifodalashi kuzatiladi. Biroq bu manbalarda sabab va maqsad hollari ketma-ket tarzda ifodalangan. Sabab holi uchun maxsuslashgan so'z turkumi yo'q. Bunday hollar ish-harakatning, kengroq ma'noda belgining mavqeyiga nisbatan boshqa so'z shakllarining tutgan mavqeyidan, ya'ni predikatga nisbatan sabab munosabatini bildirgan so'z shakli va iboralarning mavqeyidan belgilanadi. Sabab holi ham kelishikli va ko'makchili shakllar bilan ifoda qilinadi: *Alar yahmdyn ul tiflni bir qyymaty niməgə chirməb, ul chāh bashyda qoyub qachtylar* (Navoiy, TMA). *Ul xalāyuyq taajjub yūzidin andyn ul hāl kəyfiyatın sorubturlar* (Navoiy, NM).

Maqsad hollarining ham kelishikli va ko'makchili shakllari mavjud: *Shikāyatg'a bu faqyr qashyg'a keldilər* (MN). *Ilm tahsili uchun shahrg'a kelibtyr* (MN).

Dastlabki gapda maqsad ma'nosining ifodalanishi *shikāyatg'a* so'zi orqali ifodanganligi, ko'makchi orqali ifodalanishi esa *tahsili uchun* so'zi bilan namoyon bo'lgan.

Yuqoridagilarni isboti sifatida "To'nyuquq bitiktoshi" matnida ifodalangan maqsad ma'nosi borligi asos sifatida keltirishimiz mumkin. Masalan, "ötüntüm, sü yoritdim atlat, tədim. Aq tərmlə kəchə og'raqlatdim, at üzə bintürə, qarig' səkdüm, yoqaru at yətə, yadag'in, ig'ach tutunu ag'turtum əngrəki ər".

Ya'ni: "Arz qildim. Lashkarni yo'lga soldim. Ot sol, dedim. Oq tarmalni kechib, maqsad sari yo'lladim. Ot ustiga mindirib, qorni yordim. Yuqoriga otni yetaklab, yayov yog'och tutunib, chiqardim

oldindagi yigitlar” kabi matnda maqsad ma’nosi leksema orqali ifodalanganligiga guvoh bo‘lamiz.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, maqsad ma’nosining ifodalanishi qadimgi turkiy va eski o‘zbek adabiy tiliga borib taqaladi. Buning isbotini “Qissasi Rabg‘uziy”, “Muhabbatnoma”, “Xusrav va Shirin”, “Najhul Farodis” kabi asarlardan hamda A.Navoiy va S.Saroiy asarlaridan keltirilgan parchalarda kuzatishimiz mumkin. Bunday ma’no nozikliklari bevosita yoritilgan va boshqa ma’no nozikliklari ham tahlilga tortilgan.

### REFERENCES

1. Туркий тилларнинг тарихий-қиёсий грамматикаси. –Тошкент: ЎзМУ, 2004. – 104 б.
2. Абдурахмонов Ф., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1973. – 318 б.
3. Мухторов А., Санакулов У. Ўзбек адабий тили тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 160 б.
4. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 232 б.